

Erkinova Marxobo

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili  
va adabiyoti universiteti o'qituvchisi  
[erkinovamarhabo1@gmail.com](mailto:erkinovamarhabo1@gmail.com)

## ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI

**Annotatsiya.** Maqolada assotsiativ hosil qilishda lingvistik omillarning o'rni va sinaluvchilarda tajriba o'tkazish natijasida o'zbek tilida salbiy baho bildiruvchi leksik birlikning assotsiatsiya hosil bo'lish mexanizmlari, baho bildiruvchi assotsiativ maydoni, verbal assotsiatsiyalarning lingvistik xususiyatlari tadqiq etiladi, statistik tahlil etiladi va muhokama qilinadi. Assotsiativ tajriba asosida to'plangan natijalarga ko'ra salbiy baho munosabatiga ega shayton leksemasining assotsiativ maydoni tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** assotsiatsiya, assotsiativ tajriba, stimul so'z, leksik assotsiatsiya, sintagmatik munosabat, paradigmatic munosabat.

Erkinova Marxobo

Researcher-pedagogue, Alisher Navoi Tashkent State  
University of the Uzbek Language and Literature

## THE ROLE OF LINGUISTIC FAKTORS IN THE FORMATION OF AN ASSOCIATIVE FIELD

**Abstract.** In the article, the role of linguistic factors in the formation of associatives and as a result of experimenting with test subjects, the mechanisms of association formation of a lexical unit denoting a negative evaluation in the Uzbek language, the associative field denoting evaluation, the linguistic features of verbal associations are researched, statistically analyzed and discussed. According to the results collected on the basis of associative experience, the associative field of the devil lexeme with a negative evaluation relationship is analyzed.

**Key words:** association, associative experience, stimulus word, lexical association, syntagmatic relationship, paradigmatic relationship.

Эркинова Мархобо

Преподаватель, Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

## РОЛЬ ЯЗЫКОВЫХ ФАКТОРОВ В ФОРМИРОВАНИИ АССОЦИАТИВНОГО ПОЛЯ

**Аннотация.** В статье рассмотрена роль языковых факторов в образовании ассоциативов и результате экспериментирования с испытуемыми, механизмы ассоциативного образования лексической единицы, обозначающей отрицательную оценку в узбекском языке, ассоциативного поля, обозначающего оценку, лингвистические особенности речевых ассоциаций исследуются, статистически анализируются и обсуждаются. По результатам, собранным на основе ассоциативного опыта, анализируется ассоциативное поле лексемы дьявол с отрицательным оценочным отношением

**Ключевые слова:** ассоциация, ассоциативный опыт, слова-стимул, лексическая ассоциация, синтагматическая связь, парадигматическая связь.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N31>

**Kirish.** Dunyo tilshunosligida XX asrning oxirgi yillarida til birlikdarini assotsiativ tahlil metodi asosida tadqiq etishga qiziqish kuchaya boshladi. Til birliklarini bu yo'nalishda tadqiq etilishi natijasida inson psixologik tasavvuri va uning til tizimida aks etishi masalasi bo'yicha qiziqarli bilimlarga ega bo'lindi. Assotsiativ tahlil metodi til birliklarining inson tafakkuri, xotirasi, leksik zaxirasi kabi omillar bilan bog'liq tomonlarini yoritishda muhim o'rinn tutdi.

Maqola natijalarining ilmiy ahamiyati baho bildiruvchi birliklarning assotsiativ xususiyatlariga doir nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishga xizmat qilish, assotsiativ tilshunoslilikda olib borilayotgan tadqiqot ishlariiga, xususan, til birliklarining assotsiativ bog'lanishi, matn hosil qilishdagi o'rni, lingvistik xususiyatlarini aniqlashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati o'zbek tilining aasotsiativ grammatikasini yaratishda, turli tipdag'i assostiativ lug'atlarni tuzishda foydalanish mumkin.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Assotsiativ birliklar falsafiy-psixologik hodisa bo'lib, uning nazariy asoslanishi faylasuflar va tilshunoslarning ishlarida o'z aksini topgan. Manbalarda qayd etilishicha, assotsiatsiya (lot. Association – qo'shish, biriktirish) terminini ilmiy muomalaga 1960-yilda ingliz filosofi, pedagog, emprizm va liberiazm vakili ilk bor falsafa termini sifatida J.Lokk fanga kiritgan. Tildagi assotsiatsiyalarga ilk bor nemis olimi V.Gumboldt murojaat etadi. U har bir inson ongida bir-biriga muvofiq keluvchi, ammo aynan bo'lмаган fikrlar paydo bo'lishi hisobiga o'zaro tushunish yuz berishini qayd etgan edi. O'zbek tilshunoslida Sh.Iskandarova, A.Sobirov, B.Qurbanova, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, N.Hoshimovalar tomonidan assotsiativ tilshunoslilik nazariyasi, assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ maydon, verbal assotsiatsiyalarning vujudga kelish omillari xususida tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. O'zbek tiliga bu sohaning kirib kelishi f.f.d., prof.D.E.Lutfullayeva nomlari bilan bog'liq. Assotsiativ birliklarning gender xoslanishi borasida G.E.Yuryevna, T.G.Borgoyakova, G.E Kuznetsova kabilar rus tili misolida ish olib borganlar. O'zbek tilshunoslida assotsiativ birliklarning gender xoslanishi mavzusida tadqiqot ishi olib borilmagan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Har qanday leksik birlik, u qanday grammatik shaklga yoki qanday ma'noga ega bo'lmasin, inson xotirasida turli omillarga bog'liq holda qandaydir leksik birliklar yoki boshqa sath birliklarini yodga tushiradi, ular bilan assotsiativ bog'lanadi. Professor A.Nurmonov leksik assotsiatsiyalarning hosil bo'lishini leksemalarga xos umumiyl belgi bilan bog'laydi. Olimning fikricha, "so'z sintagmatik munosabatga kirishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so'zlar bilan umumiylilik belgisiga ko'ra so'zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalashadi va bu assotsiatsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruhlarni hosil qiladi" [4; 50]. Darhaqiqat, tildagi leksik birliklar semantik, struktur, derivatsion, konnotativ, akustik kabi qator belgilari asosida umumiylilikka birlashishi mumkin. Bu kabi umumiyl belgililar ko'plab leksik assotsiatsiyalarda kuzatiladi va ular til egalari xotirasida muayyan guruhlarga birlashgan holda o'rinalashadi.

Sinaluvchi "shaxsi" ta'siri hamda tajriba o'tkazish shart-sharoiti omilini mohiyatan ekstraliningvistik omilga birlashtirgan ma'qul. Masalaga bu jihatdan yondashilsa, assotsiativ juftliklarning hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni lingvistik va ekstraliningvistik omillarga ajratgan holda o'r ganish mumkin bo'ladi. O'zbek tilida leksik assotsiatsiyalar quyidagi lingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'ladi:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalarning pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishdagi umumiylig.
6. Leksemalarning talaffuz hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalarning milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi [3; 39].

Lingvistik omillar bilan hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin.

**1. Leksemalarning semantikasiga asoslangan assotsiatsiya.** Tildagi leksik birliklarni inson xotirasida nafaqat shakliy ko'rishi, balki moddiy qobig'i, grammatic shakli; semantik, stilistik-funksional, pragmatik, akustik kabi til egasi tomonidan tomonidan yaxlit holda muhrlanadi. Bu belgilardan semantik mohiyat mavjud bo'lganda ma'nodagi sinonimik munosabat: bola-farzand, iboli-hayoli, katta-ulkan assotsiativ juftliklari; zidlik munosabati: katta-kichik, chiroyli-xunuk, do'st-dushman juftliklari antonimik munosabat asosida assotsiativ bog'lanadi. Prof. A.Nurmonovning fikricha, "...assotsiatsiya ham mazmun, ham shakl asosida yoki faqat shakl yo faqat mazmun asosida yuzaga kelishi mumkin" [4; 50].

O'zbek tilida semantik aloqadorlikka asoslangan leksik assotsiatsiyalashning biri uyadosh leksemalar orqali hosil bo'lishidir. Masalan, daftar leksemasi ruchka leksemasi bilan, o'qituvchi leksemasi o'quvchi leksemasi bilan assotsiativ bog'lanadi.

O'zbek tilida soch-bosh, qaldirg'och-qush, sabzi-sabzavot tipidagi assotsiativ juftliklar leksemalar o'rtasida tur-jins munosabati asosida hosil bo'lsa, tirnoq-bola, tuz-ovqat juftliklari leksemalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida hosil bo'ladi.

Ayrim leksemalarning leksik ma'nosida semantik assotsiatsiyalar mujassamlashadi. Masalan, bemor leksemasi inson xotirasida og'riq, shifokor, hamshira, kasalxona, dori-darmon, ukol, shprist, dorixona, oq xalat assotsiativ birliklarini gavdalantiradi.

**2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya.** Tildagi leksik birliklar leksik -grammatik belgisiga ko'ra ham assotsiatsiyani hosil qiladi. Masalan, ota, otajon, otaxon, otam, otang ot so'z turkumida erkalash, hurmatlash, birlik, egalik ifodalash, o'qli-qima, yozay-yozing, juftliklari shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl munosabati leksik birliklarning grammatik jihatdan o'zaro assotsiatsiyani hosil qiladi.

**3. Leksik birliklarning uslubiy belgisiga ko'ra assotsiatsiya.** Leksik birliklar uslubiy belgisiga ko'ra ma'lum assotsiatsiyani hosil qiladi. Masalan, frazema-leksema, tire-qo'shtirnoq, ko'makchi-yuklama-bog'lovchi leksemalari ilmiy uslubga, oraz-ruxsor badiiy uslubga, buyuraman-tasdiqlansin rasmiy uslubga xos assotsiativ juftliklarni yuzaga keltiradi.

**4. Leksik birliklarning pragmatik belgisiga ko'ra assotsiatsiya.** Leksemalar pragmatik ma'nosining bog'liqligi jihatidan ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, iljaymoq-tirjaymoq assotsiativ juftliklarida sinonimik munosabat birlamchi bo'la, yana bir jihatni leksema va uning assotsiatsiyasiga xos umumiy pragmatik ma'nolar (ularning salbiy yoki ijobjiy baho munosabatini ifodalashi) assotsiativ juftliklarni yodga tushiradi.

**5. Leksemalarning yasalishiga asoslangan assotsiatsiya.** Leksema va u orqali hosil bo'lgan yasalmalar o'rta sidagi munosabat ham inson tafakkurida assotsiativ bog'lanishni yuzaga chiqaradi. Masalan, gul leksemasi asosida hosil bo'lgan gulli, gulchi, guldon, gulsiz, gulla yasalmalari bilan assotsiativ bog'lanadi.

**6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligiga asoslangan assotsiatsiya.** Turli ma'nolarni anglatuvchi, biroq talaffuzda hamohang, inson tomonidan semantik jihatdan yaqin birliklar sifatida idrok etiluvchi paronimik juftliklar munosabatida ham assotsiativ aloqa kuzatiladi [3; 45]. Masalan, adresant-adresat.

Assotsiativ bog'lanish ba'zi tilshunoslar tomonidan paronimlarning o'ziga xos ko'rinishlari sifatida ajratilayotgan psevdoparonimlarda [2; 11] ham qayd etiladi. Bunday paronimlar turlicha semalara ega bo'lsa ham, ularning akustik jihatdan yaqin talaffuz qilinishi bir-birini eslatib turadi. Masalan, da'veo-davo, asil-asl leksik assotsiatsiyalari shu tarzda yuzaga keladi.

**7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra assotsiatsiya.** Dialektlar adabiy tildagi muqobilari bilan assotsiativ munosabatni yuzaga keltiradi. Masalan, nini-chaqalop, tuxum-mayak, yostiq-bolish assotsiativ juftliklari adabiy til-dialekt munosabati asosida hosil bo'lgan. Assotsiativ tilshunoslikning konsepsiyasiga ko'ra til nafaqat tizimli munosabatlar shaklida, nafaqat matnlarning yirik majmui ko'rinishida, balki insonning til layoqati bilan bog'liq bo'lgan assotsiativ verbal tarmoq shaklida ham namoyon bo'ladi [1; 238].

**8. Leksemalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiya.** Ma'lum bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib beriladi. Masalan, belbog', do'ppi, sumalak, kashta, sochpopuk leksemalari denotativ ma'nosidan tashqari ular ifoda etgan udum va kiyimlarning o'zbek millati madaniyatiga xosligi haqidagi ma'lumotni beradi va milliy-madaniy leksik birliklar assotsiatsiyasini hosil qiladi.

**9. Leksemalarning ijtimoiy belgisiga asoslangan assotsiatsiya.** Dialektal qo'llanishlar, muayyan sotsial guruhlarga xos leksik birliklar til egalarining ijtimoiy mavqeyi, kasb-kori, mashg'uloti kabilalar kabilalar haqida ham axborot beradi. Bunday leksemalarning inson tafakkurida bir-birini yodga solishi va assotsiativ bog'lanishiga ijtimoiy belgisi yaqinligi sabab bo'ladi. Masalan, tikuvchi leksemasi dizayner leksemasini, shifokor leksemasi hamshira leksemasini yodga tushiradi. Bunday leksik birliklar bir-biri bilan kasb-kor, mashg'ulot egalarini bildirishiga ko'ra assotsiativlikni hosil qiladi.

**10. Gender xususiyatiga asoslangan leksik assotsiatsiyalar.** Tilimizdaggi jinsga oid leksik birliklar shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ bog'lanadi. Masalan, ayol leksemasi aynan shu belgiga ega bo'lgan xotin, ona, opa, singil, xola, amma leksemalari bilan, erkak leksemasi er, ota, aka, tog'a kabi leksemalar bilan assotsiativ munosabatga kirishadi.

Leksik birliklar assotsiativ maydonini quyidagi usullarda hosil qilish mumkin:

1. Matndan assotsiativ bog'langan birliklarni ajratish va assotsiativ maydonga birlashtirish orqali.

2. Sinaluvchilarda ma'lum birliklar bo'yicha assotsiativ tajriba o'tkazish va uning materiallari asosida assotsiativ maydonni shakllantirish.

Sinaluvchilarda ma'lum birliklar bo'yicha assotsiativ tajriba o'tkazish va uning materiallari asosida assotsiativ maydonni shakllantirishni salbiy baho munosabatlari ot so'z turkumiga mansub *shayton leksemasining* assotsiativ maydonini ko'rib chiqamiz.

Shayton leksemasiga sinaluvchilar o'rtasida tajriba o'tkazilib, quyidagicha natija qayd etildi: javob reaksiyalarining jami 82 ta, turli javob reaksiyalari 71 ta, takror kelgan javob reaksiyalari 7 ta, yakka tartibda kelgan javob reaksiyalari 64 ta, javob berilmagan 1 ta.  $(82+71+7+64+1)^1$

**Shayton stimul leksemasining assotsiatsiativ maydoni:** *to'g'ri yo'lidan ozdiruvchi 4, nafs 4, iblis 3, ikki shoxli maxluq 2, insonning nafsi 2, odam qiyofasidagi shayton 2, gunohga chorlovchi 2, vas-vas, tilyog'lama, aldoqchi, you tobeda ko'rigan bitta rasm, odamni yo'lidan uruvchi ko'zga ko'rinas ruh, ayrim ayollar, tili boshqa, dili boshqa odam, ezgulikdan qaytaruvchi, "seni foydangga" deb aldovchi ko'zga ko'rinas ruh, nafsnii tiyish, yomon yo'lga boshlovchi, "Shaytoncha qiz ekan", "Shayton har bir odamning qonida bor", "U shaytonlab qoldi", "Shaytonlama", qabihlik o'chog'i, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, o'z manfaati yo'lida yolg'ondan o'zini yaxshi ko'rsatuvchi makkorlar, yomonlik tilovchi, ikki shoxli badbashara maxluq, "Shaytonga o'xshab har xil nayrang qiladigan, o'zining nayrangiga o'ynatadigan insonga aytildi", "Yaxshimisiz? Uzr, shoshib turuvdim", insonlarni to'g'ri yo'lidan adashtiruvchi, yomonlikka undaydigan, faqat yomonlik ob keladigan, to'g'ri yo'lga boshlamaslik", qimor, yomonlikka yetaklovchi, yo'lidan adashtiruvchi, farishta, aldaydigan, "Biron narsani qimoqchi bo'lsangiz, erinchoqlik qilsangiz, ertaga qilaman deb yuraversangiz, shunga shayton deyiladi", "Men shaytonni bir dashmanday bilaman. Misol uchun kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, o'qima deyishi mumkin", "Shayton dangasa odamlarda ko'p bo'ladi deb o'ylayman", gunohga yo'l boshlovchi, diniy tushuncha, "Odamni har qanday jirkanch ishga yetaklaydigan ilohiy shaxs", yomon ishlar qiladigan, yomonlik, qitmirl, bejag'im, ayol, aldaydigan inson, do'zax elchisi, yomon insonlar, yolg'onchilar, echki, ajal, jannatdan quvilgan, Ollohnning inson bilan munosabatini ko'rolmaydigan, to'siq qo'ymoqchi bo'lgan mavjudot, barcha yomon, zararli, gunoh ishlarga majburlovchi, befoyda, zararli ishlarni qildiradigan, to'g'ri yo'lidan ozdiradigan, dushman, xuligan, yomon, razil, tulki, ilonning yog'ini yalagan, yolg'onchi, kibr, gunohga boshlovchi kabilar.*

### Tahlil va natijalar

**I. Shayton stimul so'zining leksik-semantik belgisi. Shayton stimul leksemasining lug'aviy ma'nosi.** "O'zbek tilining izohli lug'ati" ida shayton leksemasining quyidagi ma'nolari berilgan: Shayton – iblis; jin, ajina. 1. Din. Odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i; iblis. 2. Ko'chma ayyor, quv odam; aldamchi. 3. Ko'chma sho'x, o'ynoqi [5; 534]. Bu ma'nolar shayton leksemasining quyidagi assotsiatsiyalarida reallashadi:

1. Din. Odamlarni din yo'lidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshlig'i; iblis. *Odamni yo'lidan uruvchi, iblis, to'g'ri yo'lidan ozdiruvchi, yomon yo'lga boshlovchi, qabihlik o'chog'i, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, insonlarni to'g'ri yo'lidan ozdiruvchi, yomonlikka undaydigan, faqat yomonlik olib*

<sup>1</sup> Assotsiativ tajriba yaqin qarindoshlarim va Alisher Navoiy nomidagi Toshent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabalari, Toshkent kimyo-tehnologiyalari Institute talabalari ustida o'tkazildi. (20 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan 55 nafar sinaluvchida o'tkazildi, shundan 23 nafari ayol jinsiga, 32 nafari erkak jinsiga mansub)

*keladigan, yomonlikka yetaklovchi, yo'ldan adashtiruvchi, gunohga chorlovchi, gunohga boshlovchi, diniy tushuncha, yomon insonlar, razil.*

2. Ko'chma ayyor, quv odam; aldamchi. *Tilyog'lama,aldoqchi, tili boshqa, dili boshqa odam, aldaydigan, yolg'onchilar, aldaydigan inson, yolg'onchilar, tulki, ilonning yog'ini yalagan, yolg'onchi.*

3. Ko'chma sho'x, o'ynoqi. *Vas-vas, shaytoncha qiz, shaytonlama, qitmir, xuligan.*

**Shayton leksemasining semantik komponentlari:** Shayton leksemasining bosh ma'nosi *to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, gunohga boshqaruvchi, aldoqchi, aldaydigan, vas-vas* semantik komponentlariga ega. *To'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, gunohga boshqaruvchi* semalari quyidagi assotsiatsiyalarda yuzaga chiqadi: *gunohga yo'l boshlovchi, barcha yomon, zararli, gunoh ishlarga majburlovchi, befoyda, zararli ishlarni qildiradigan, to'g'ri yo'ldan ozdiradigan.. Aldoqchi, aldaydigan semalari odam qiyofasidagi shayton, tilyog'lama, aldaydigan, o'z manfaati yo'tida yolg'ondan o'zini yaxshi ko'rsatuvchi makkorlar assotsiatsiyalari orqali reallashadi.*

**Shayton leksemasining ko'chma ma'nolari:** Shayton leksemasining *ikki shoxli maxluq, tilyog'lama, ilonning yog'ini yalagan, "Shaytoncha qiz ekan", "Shaytonlama", qabihlik o'chog'i, "U shaytonlab qoldi", odam qiyofasidagi shayton, do'zax elchisi, echki, birovni ko'rolmaydigan inson, ayol, ayrim ayollar* kabilalar metaforik ma'noda qo'llanishi asosida hosil bo'lgan.

**Shayton leksemasining paradigmatic qatorlari:** Shayton leksemasining paradigmatic qatorlarida ot (iblis, vas-vas, nafs, qimor, farishta, yomonlik, ayol, echki, ajal, dushman, tulki, kibr), sifat (tilyog'lama, aldoqchi, qitmir, bejag'im, yolg'onchilar, xuligan, yomon, razil, yolg'onchi), son (2), fe'l (shaytonlama, aldaydigan, gunohga chorlovchi, gunohga boshlovchi, aldaydigan inson) turkumiga oid so'zlar, ko'p miqdordagi so'z birikmalari (*ikki shoxli maxluq, insonning nafsi, odam qiyofasidagi shayton, gunohga chorlovchi ayrim ayollar, ezgulikdan qaytaruvchi, qabihlik o'chog'i, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, yomonlik tilovchi, ikki shoxli badbashara maxluq, insonlarni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi, yomonlikka undaydigan, faqat yomonlik ob keladigan, to'g'ri yo'lga boshlamaslik, yomonlikka yetaklovchi, yo'ldan adashtiruvchi, gunohga yo'l boshlovchi, diniy tushuncha, yomon ishlarni qiladigan, aldaydigan inson, do'zax elchisi, yomon insonlar, jannatdan quvilgan, befoyda, zararli ishlarni qildiradigan, to'g'ri yo'ldan ozdiradigan, gunohga boshlovchi, to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi*), kam miqdordagi iboralar (tilyog'lama, odamni yo'ldan uruvchi, to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, tili boshqa, dili boshqa odam, ilonning yog'ini yalagan), gap shaklidagi sintasemalar ("Shaytoncha qiz ekan", "Shayton har bir odamning qonida bor", "U shaytonlab qoldi", "Shaytonlama", "Shaytonga o'xshab har xil nayrang qiladigan, o'zining nayrangiga o'ynatadigan insonga aytildi", "Yaxshimisiz? Uzr, shoshib turuvdim", "Biron narsani qimoqchi bo'lsangiz, erinchoqliq qilsangiz, ertaga qilaman deb yuraversangiz, shunga shayton deyiladi", "Men shaytonni bir dushmanday bilaman. Misol uchun kitob o'qimoqchi bo'lsangiz, o'qima deyishi mumkin", "Shayton dangasa odamlarda ko'p bo'ladi deb o'ylayman") kabilalar qayd etildi.

Sinonimik munosabat quyidagi assotsiatsiyalarda kuzatiladi: *to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, odamni yo'ldan uruvchi, insonlarni to'g'ri yo'ldan adashtiruvchi, yo'ldan adashtiruvchi, to'g'ri yo'ldan ozdiradigan; yomonlikka undaydigan, faqat yomonlik ob keladigan, yomonlikka yetaklovchi, yomon yo'lga boshlovchi, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi; gunohga yo'l boshlovchi, gunohga boshlovchi, gunohga chorlovchi; tilyog'lama, aldoqchi, yolg'onchilar, aldaydigan inson, yolg'onchi kabilalar. Ilonning yo'g'ini yalagan va tulki assotsiatsiyalari kontekstual sinonimloki hosil qiladi.*

*Shayton* leksemasi bilan bog'liq quyidagi antonimik assotsiatsiya kuzatildi: *farishta*.

*Shayton* leksemasi assotsiatsiyalari quyidagi uyadoshlik qatorlariga birlashdi: *qitmir, xuligan, razil, yomon, yomonlik, kibr*.

**II. *Shayton* leksemasining leksik-grammatik belgisi.** Assotsiativ tajriba asosida *shayton* leksemasining quyidagi morfolofik shakllardagi assotsiatsiyalari qayd etildi: *shayton, shaytonni, shaytonga*.

Assotsiativ maydondagi shakliy sintagmatik munosabat ko'rinishlari: 1) teng munosabat: *barcha yomon, zararli, befoya, zararli, yomonlikka, qabihlikka*; 2) tobe munosabat ko'rinishlari: a) *boshqaruv: gunohga chorlovchi, odamni yo'ldan uruvchi, ezgulikdan qaytaruvchi, nafsni tiyish, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, yomonlik tilovchi, yomonlikka yetaklovchi, yo'ldan adashtiruvchi, gunohga yo'l boshlovchi, gunohga boshlovchi*; b) *moslashuv: insonning nafsi, qabihlik o'chog'i, do'zax elchisi*; c) *bitishuv: ikki shoxli maxluq, ayrim ayollar, ikki shoxli badbashara mahluq, diniy tushuncha aldaydigan inson, yomon insonlar* kabilar.

Mazmuniy sintagmatik munosabat ko'rinishlari: a) predikativ munosabat: *jannatdan quvilgan*; b) atributiv munosabat: *insonning nafsi, qabihlik o'chog'i, do'zax elchisi, ikki shoxli maxluq, ayrim ayollar, ikki shoxli badbashara mahluq, diniy tushuncha aldaydigan inson, yomon insonlar*; c) relyativ munosabat: *yo'ldan adashtiruvchi, to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi*; d) obyektivli munosabat: *nafsni tiyish, yomonlik tilovchi, gunohga boshlovchi, gunohga chorlovchi, ezgulikdan qaytaruvchi, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, yomonlikka undaydigan va h.k.*

**III. *Shayton* leksemasining derivatsion xususiyati.** Assotsiativ tajriba asosida salbiy baho munosabatiga ega *shayton* leksemasiga asoslangan quyidagi assotsiatsiya kuzatildi: *shaytonlab, shaytoncha*.

**IV. *Shayton* leksemasining uslubiy belgisi.** *Shayton* leksemasining assotsiatsiyalarida uslubiy xoslangan assotsiatsiyalar aniqlandi: a) badiiy uslub – *qabihlik o'chog'i, do'zax elchisi, ikki shoxli badbashara maxluq*; b) so'zlashuv uslubi – "U shaytoncha qiz ekan", "Shaytonlama", "U shaytonlab qoldi", *bejag'im, xuligan, ilonning yog'ini yalagan, vas-vas; qitmir, echki*; c) publitsistik uslub: *gunohga chorlovchi, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi* kabilar.

**V. *Shayton* leksemasining pragmatik belgisi.** *Iikki shoxli maxluq, insonning nafsi, odam qiyofasidagi shayton, tilyog'lama, Shaytoncha qiz ekan*, *qabihlik o'chog'i, ikki shoxli badbashara maxluq, echki, tulki, ilonning yog'ini yalagan, do'zax elchisi* kabilar.

**Baho munosabatining ifodalanishi.** *Shayton* leksemasi verbal assotsiatsiyalarida til egalarining stimul so'zga nisbatan salbiy baho munosabati yaqqol aks etgan. Javob reaksiyalarining deyarli hammasida salbiy baho munosabati qo'llangan barcha birliklarda uchraydi. Masalan, *to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, odam qiyofasidagi shayton, tilyog'lama, aldoqchi, odamni yo'ldan uruvchi ko'zga ko'rinxmas ruh, "seni foydangga" deb aldovchi ko'zga ko'rinxmas ruh, nafsni tiyish, yomon yo'lga boshlovchi, "Shaytoncha qiz ekan", "Shayton har bir odamning qonida bor", "U shaytonlab qoldi", "Shaytonlama", qabihlik o'chog'i, yomonlikka, qabihlikka boshqaruvchi, o'z manfaati yo'lida yolg'ondan o'zini yaxshi ko'rsatuvchi makkorlar, yomonlik tilovchi, ikki shoxli badbashara maxluq, "Shaytonga o'xshab har xil nayrang qiladigan, o'zining nayrangiga o'ynatadigan insonga aytildi"* va h.k.

**VI. *Shayton* leksemasining gender belgisi.** *Shayton* leksemasining quyidagi assotsiatsiyalarda gender belgisi aks etadi. *Ayol, ayrim ayollar, "Shaytoncha qiz ekan"*.

**VII. *Shayton* leksemasining assotsiativ maydoni.** *Shayton* leksemasi assotsiativ maydonining asosini qo'llanish doirasi keng, faol so'z va so'z birikmalari tashkil etdi. Biroq

assotsiativ maydon tarkibida dialektal so'zlar, ayrim pretsedent birliklar ham kuzatildi. Masalan, *bejag'im, xuligan* kabi dialektal qatlamaqta oidi so'zlar uchraydi.

Shayton leksemasi assotsiativ maydonida quyidagi persedent birliklar kuzatildi: *do'zax elchisi, qabihlik o'chog'i, iblis, ikki shoxli maxluq* kabilari.

**VIII. Assotsiatsiyalarining qo'llanish chastotasi.** Shayton leksemasi assotsiatsiyalarining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarning asosiy qismida shayton leksemasi insonlarni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, yomonlikka boshqaruvchi, gunohga yetaklovchi kabi tasavvur hosil qiladi. Undan tashqari aldoqchi, yolg'onchi, makkor, tilyog'lama, qitmır kabi ma'nolari ham aks etdi.

**Muhokama.** Tilni maydon sifatida o'rganish tilning kommunikativ, kummulyativ, semiotik, pragmatik va gnoseologik tabiatini aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Til va assotsiativ tafakkurga aloqador masalalar nafaqat sistem-struktur tilshunoslikning, balki psixolingvistika, neyrolingvistika, ijtimoiy psixologiya, sinergetika, falsafa, mantiq va kognitologiyaning muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Assotsiatsiyalarini bir necha fanlar uyg'unligida tahlli etish til masalalarini atroficha yoritish imkonini berish bilan birga, shaxs tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishga zamin yaratadi. Lisoniy assotsiativ tajribalar orqali millat mentaliteti va tafakkurining jamoaviy va individual qatlamini farqlash muhim omil hisoblanadi. Ma'lum bir assotsiativ maydonni hosil qilishda shaxsnинг psixologik holati ta'sir etadimi? Sinaluvchining tafakkur darajasi qay darajada ahamiyatga ega? Assotsiatsiyani hosil qilgan lingvistik omillar orqali shaxsnинг milliy-madaniyati, ijtimoiy holati, gender tafovuti, quvayi hofizasi idrok etiladimi?

**Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnidagi, leksik assotsiatsiyalarining hosil bo'lishida sinonimlar, antonimlar, paronim, uyadosh so'zlar, bir asosdan yasalgan leksemalar, talaffuzda aytilishi bir-biri bilan yaqin bo'lgan leksemalar, madaniylik, ijtimoiylik belgisiga ko'ra umumiyoq bo'lgan leksik birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Shayton leksemasi assotsiatsiyalarining statistik tahlili shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarning asosiy qismida shayton leksemasi insonlarni to'g'ri yo'ldan ozdiruvchi, yomonlikka boshqaruvchi, gunohga yetaklovchi kabi tasavvur hosil qiladi. Undan tashqari aldoqchi, yolg'onchi, makkor, tilyog'lama, qitmır kabi ma'nolari ham aks etdi. Ushbu so'zga nisbatan o'zbek til egalarining dunyoqarashi, milliy ongi, diniy tushunchalari yaqqol aks etgan.

Leksik assotsiatsiyaning hosil bo'lishida ekstraliningvistik omillar ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Tashqi olamdagi turli voqeliklar aloqadorligi, til egalarining shaxs xususiyatlari, kasb-kori, ruhiyati, pragmatik xohishi, voqelikka bo'lgan baho munosabati kabilari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan assotsiativ birliklarda ekstraliningvistik omillarni hisobga olish o'rinnlidir.

#### Adabiyotlar/Literatura/References:

- Караулов Ю.Н Ассоциативная грамматика русского языкаю Изд.2. – М., URSS.2010. – 238 С.
- Конева Е.А. Специфика функционирования паронимов в ментальном лексиконе (экспериментальное исследование): Автореф. дисс. ... канд. филол.наук. - Курск, 2010. – С.11
- Lutfullaeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017

4. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari ("Lingvistika" yo'nalishidagi magistrilar uchun o'quv qo'llanma). – Toshkent. 2009
5. O'zbek tilining izohli lug'ati" – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. 534-bet